

Bank kengashining  
2023-yil 28-noyabrdagi  
95-sonli bayonnomasiga  
1-sonli ilova  
**“Tasdiqlayman”**  
**InFinBank ATB**  
**Kengashi raisi**  
**Ahmadjonova A.N.**

---

**“Invest Finance Bank”  
aksiyadorlik tijorat bankining  
2024-yil uchun biznes rejasi**

**Toshkent 2023-yil**

## **2024-yil uchun biznes reja**

**1. Boshqa banklardagi pul mablag‘lari** - ushbu modda bo‘yicha qoldiq jami 620,5 mlrd so‘mni tashkil etadi.

**2. Kreditlar** - kredit portfelining umumiy qoldig‘ini 8 367 mlrd so‘mga yetkazish rejalashtirilmoqda, bu 2023-yil yakuniga nisbatan 1 948 mlrd so‘m yoki 130,4 foiz ko‘pdir. Shu bilan birga, yuridik shaxslarning kredit portfeli 827 mlrd so‘mga oshib, 4 364 mlrd so‘mni, shu jumladan chet el valyutasidagi kreditlar 411 mlrd so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Jismoniy shaxslar portfeli 1 122 mlrd so‘mga ko‘payib, 4 003 mlrd so‘mga yetadi. Rejalashtirilgan davr mobaynida jami 5 199 mlrd so‘m miqdorida kredit ajratish ko‘zda tutilgan bo‘lib, shundan yuridik shaxslarga 3 037 mlrd so‘m, jismoniy shaxslarga 2 211 mlrd so‘m kredit berilishi mo‘ljallangan. Jismoniy shaxslarni kreditlash yo‘nalishida ipoteka kreditlari 1 819 mlrd so‘m, avtokreditlar 1 167 mlrd so‘m va overdraftlar 1 006 mlrd so‘mni tashkil etadi. Jismoniy shaxslarga kredit berish bo‘yicha asosiy e’tibor 118 965 ta overdraft (kredit kartalari) operatsiyalariga qaratiladi.

**3. Investitsiyalar** - Bank 2023-yil davomida O‘zbekiston Markaziy banki va Moliya vazirligining yuqori likvidli qimmatli qog‘ozlari bilan investitsiya portfelini 641 milliard so‘mga yetkazishni rejalashtirmoqda. Natijada, qoldiqning o‘sishi 638 milliard so‘mni tashkil etadi. Ushbu modda bo‘yicha qoldiqlar likvidlikni qoplash koeffitsiyenti me’yoriga ham ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

**4. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar** - bu modda bo‘yicha qoldiq 649 milliard so‘mni tashkil etib, 2023-yil yakuniga nisbatan 103 milliard so‘mga yoki 118,9 foizga ko‘p bo‘ladi. Qoldiqning o‘sishi quyidagilar hisobiga ko‘zda tutilgan: Mustaqillik ko‘chasidagi qurilishi tugallanmagan bino bo‘yicha 14 milliard so‘mlik hisob-kitoblarni yakunlash; telekommunikatsiya, tarmoq, elektrotexnika uskunalari, serverlar, dasturiy ta’minot, kompyuterlar va ofis texnikasi xarid qilish orqali jami 140 milliard so‘mlik Ma’lumotlarni qayta ishlash markazini (MQM) rivojlantirish; 1 milliard so‘mlik qo‘sishma texnika xarid qilish; shuningdek, 52 milliard so‘mlik amortizatsiya.

**5. Talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlar qoldig‘i** 2 135 mlrd. so‘mni tashkil etadi, bu 2023-yilga nisbatan 350 mlrd. so‘mga yoki 120% ko‘p bo‘ladi. Yuridik shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari qoldig‘i 341 mlrd. so‘mga oshadi, shundan milliy valyutada 470 mlrd. so‘m o‘sish, xorijiy valyutada esa 129 mlrd. so‘m kamayish kuzatiladi. Jismoniy shaxslarning talab qilib olinguncha saqlanadigan depozitlari qoldig‘i 9 mlrd. so‘mga ko‘payadi, shundan milliy valyutada 15 mlrd. so‘m o‘sish, xorijiy valyutada esa 6 mlrd. so‘m kamayish ro‘y beradi.

**6. Muddatli va jamg‘arma depozitlarni** 1 250 mlrd. so‘mga yoki 122,2% o‘sish bilan 6 871 mlrd. so‘mga yetkazish rejalashtirilmoqda. Yuridik shaxslarning muddatli va jamg‘arma depozitlari bo‘yicha qoldiqlar 879 mlrd. so‘mga oshadi, shundan milliy valyutada 465 mlrd. so‘m, xorijiy valyutada esa 414 mlrd. so‘m o‘sish kuzatiladi. Jismoniy shaxslarning muddatli depozitlari qoldig‘i 371 mlrd. so‘mga ko‘payadi, shundan milliy valyutada 401 mlrd. so‘m o‘sish, xorijiy valyutada esa 30 mlrd. so‘m kamayish kutilmoqda.

**7. Moliya vazirligi resurslari** - Moliya vazirligi tomonidan ajratilgan mablag‘lar qoldig‘i (fermerlar, bolalar bog‘chalari va Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi uchun) 552 milliard so‘mni tashkil etadi, bu 2023-yil yakuniga nisbatan 6 milliard so‘mga kam demakdir.

**8. Boshqa banklarning mablag‘lari va xorijiy banklarning kredit liniyalari** - umumiy

qoldiq 252 milliard so‘mni tashkil etib, 71 milliard so‘mga o‘sgan. O‘sish mablag‘larining asosiy qismi 175 milliard so‘mni tashkil etib, bu bank depozitlaridir.

9. **Subordinatsiyalangan qarz** - umumiy qoldiq 180 milliard so‘mni tashkil etib, 7 milliard so‘mga o‘sgan. Subordinatsiyalangan qarzni jalb qilish 2024-yil boshida 30 milliard so‘m miqdorida rejalashtirilgan.

10. **Ustav kapitali** - qoldiq 251 milliard so‘mga oshdi. Kapital miqdorini 890 milliard so‘mga yetkazish rejalashtirilgan. Bu hisobot davri mobaynida joriy foydani kapitallashtirib, auditorlik tekshiruvini o‘tkazish orqali amalga oshiriladi.

11. **Zaxira kapitali** - zaxira kapitali 12 milliard so‘mga oshdi, bu o‘tgan yilgi foydadan umumiy maqsadli zaxira fondiga 5% ajratilishi bilan bog‘liq.

12. **Banklararo operatsiyalar va investitsiyalardan foizli daromad** - 84 milliard so‘mni tashkil etadi, bu 2023-yilga nisbatan 13 milliard so‘mga ko‘p. Bo‘sh pul mablag‘lari yuqori daromad keltiradigan aktivlarga, ya’ni kreditlarga joylashtiriladi.

13. **Kreditlar bo‘yicha foizli daromad** 1 547 milliard so‘mni tashkil etadi, bu 2023-yilga nisbatan 425 milliard so‘m yoki 138 foiz ko‘p. Mazkur daromad faol kreditlash natijasida olinishi ko‘zda tutilgan.

14. **Vositachilik va xizmatlardan olingan daromadlar** - yuridik va jismoniy shaxslarning hisob-kitob-kassa xizmatlari, plastik kartochkalar operatsiyalari, kreditlash bo‘yicha vositachilik va boshqa xizmatlardan olingan daromadlar 422 milliard so‘mni tashkil etadi (standart aktivlar bo‘yicha zaxiralarni qaytarish, soliqlar, zararlarni qoplash va boshqa daromadlarni hisobga olmagan holda).

15. **Xorijiy valyutadagi foyda** 132 milliard so‘mni tashkil etadi, bu 2023-yilga nisbatan 41 milliard so‘mga yoki 145 foizga ko‘p.

16. **Depozitlar, Moliya vazirligi resurslari va jamg‘armalari bo‘yicha foizli xarajatlar** 893 milliard so‘mni tashkil etadi, bu 2023-yilga nisbatan 126 milliard so‘mga ko‘p.

17. **Xizmatlar bo‘yicha xarajatlar** 62 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Bu xorijiy banklar, ABM va BDMAB komissiyalari, inkassatsiya, kreditlarni rasmiylashtirish, plastik kartochkalarga ishlov berish xarajatlari, shu jumladan YaUPM xarajatlaridan iborat bo‘ladi.

18. **Operatsion xarajatlar** 621 mlrd. so‘mni tashkil etib, 119 mlrd. so‘m yoki 132% ga o‘sadi. Bunda ish haqi moddasi bo‘yicha 56 mlrd. so‘m, ijara va saqlash bo‘yicha 48 mlrd. so‘m, ma’muriy xarajatlar bo‘yicha 2 mlrd. so‘m, vakillik va xayriya ishlari bo‘yicha 6 mlrd. so‘m (OKJ xarajatlarining o‘sishi, vakillik xarajatlari), eskirish bo‘yicha 12 mlrd. so‘m o‘sish kuzatiladi. Soliqlar va sug‘urta bo‘yicha esa 4 mlrd. so‘mga kamayish bo‘ladi.

19. **Zaxira xarajatlari** 62 mlrd. so‘mni tashkil etadi, shundan standart aktivlar bo‘yicha zaxiralarni shakllantirish uchun 12 mlrd. so‘m ajratiladi.

20. **Sof foyda** barcha zaxiralarni hisobga olgan holda 507 mlrd. so‘mni tashkil etadi. Bu 2023-yilga nisbatan 198 mlrd. so‘mga yoki 164% ga ko‘pdir.

21. **2024-yil yakuniga ko‘ra ROA koeffitsiyenti** 3,8% darajasida rejalashtirilmoqda, 2023-yil yakunida esa bu ko‘rsatkich 2,7% ni tashkil etgan.

22. **2024-yil yakuniga ko‘ra ROE koeffitsiyenti** 28,4% darajasida rejalashtirilmoqda, 2023-yil yakunida esa bu ko‘rsatkich 22,2% ni tashkil etgan.

23. **2024-yil yakuniga ko‘ra sof foiz marjasи** 6,3% darajasida rejalashtirilmoqda, 2023-yil yakunida esa bu ko‘rsatkich 4,9% ni tashkil etgan.

24. **Shtat bo‘yicha xodimlar soni** 1600 nafarga yetadi, bu 2023-yilga nisbatan 108 nafar yoki 107% ko‘pdır.

25. **Bir xodimga to‘g‘ri keladigan foyda** - 2024-yil yakuni bo‘yicha 278 mln so‘m miqdorida rejalashtirilmoqda. 2023-yil yakuniga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 168 mln so‘mni tashkil etgan edi. O‘sish 110 mln so‘mga yoki 166 foizga rejalashtirilgan.

26. **Plastik kartalarni chiqarish** - 2024-yil davomida 120 000 ta plastik karta (shu jumladan VISA - 60 000 ta) muomalaga chiqarilishi rejalashtirilgan. 2023-yilda esa jami 176 800 ta karta chiqarilgan edi.

27. **Xalqaro pul o‘tkazmalari** - 2024-yil davomida 515 mingta pul o‘tkazmalari operatsiyalarini amalga oshirish rejalashtirilgan bo‘lib, bu 2023-yilga nisbatan 35 mingtaga ko‘pdır. Pul o‘tkazmalarining umumiyligi hajmini 400 million AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilgan, bu esa 2023-yilga nisbatan 18 million AQSH dollariga ko‘proqdir.

28. **Bankomatlar** - bankomatlar soni 114 taga ko‘paytirilib, 665 taga yetkazish. Naqd pul berish operatsiyalaridan olinadigan daromad 105 milliard so‘mga yetkazish, bu 2023-yilga nisbatan 15 milliard so‘m ko‘p degani.

29. **Faol mijozlar soni** - yuridik shaxslarning umumiyligi soni 3734 taga yoki 127 foizga oshirilib, 17783 taga yetkazish, jismoniy shaxslarning umumiyligi soni esa 71000 taga yoki 125 foizga oshirilib, 350000 taga yetkazish.

30. "InFinBank" AJning 2024-yil uchun balans rejasi hamda daromadlar va xarajatlar smetasini 1,2 va 2a-ilovalarga muvofiq ilova qilinadi.